



ZAMONVIY TILSHUNOSLIKDA MAYDON TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIONAL KATEGORIYALARI

Otaxonova Mahliyoxon Kamoliddinovna

*f.f.f.d(PhD), Andion davlat chet tillari instituti Gid hamrohligi, madaniyatlararo
muloqot va tarjimashunoslik kafedrasi o'qituvchisi*

E-mail:otaxonova@bk.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunos olimlar tomonidan maydon nazariyasiga berilgan ta'riflar o'rganilib chiqilib, maydon tushunchasi va ularning turlari tahlil qilingan. Shu bilan birga frazeologik birliklarda maydon tushunchasining ahamiyati tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *maydon nazariyasi, maydon turlari, frazeologik birliklar, makro va mikromaydon nazariyasi.*

So'ngi yillarda an'anaviy leksik semantika bilan bir qatorda, yangi yo'nalishlar ham rivojlanmoqda. Bular qatoriga struktur semantika, psixolingvistik semantika, generativ semantika, konseptual semantika, kommunikativ semantika kabilarni kiritish mumkin. Semantik maydon tilning turli xil so'zlarini ongda tartibga solish usulida mavjudlik doirasiga ega. Semantik sohadagi so'zlar juda ko'p sonli ma'nolarga ko'ra tartiblangan.[1] Bunga rang, lazzat, hayvonlar, kostyumlar, ichimliklar yoki tadbirlar kiradi. Boshqa tomondan, so'z bir nechta semantik sohaga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, ispan tilida ism *qopqoq* Bu so'z (kiyim) va tuzilish (darajalar, biologiya) so'zlari sohasiga tegishli.[2]

An'anaviy semantika asosan alohida so'z yoki so'z guruhlarining ishlatilishi va rivojlanish bosqichlaridagi ma'nolarini o'rgansa, struktur semantika (M. M.



Pokrovskiy, F.de Sossyur, L. Yelmslev, I. Trir, V. Porsig, D, Vaysgerber, L, Tener va ularning izdoshlari tomonidan ishlab chiqildi) o'z oldiga lisoniy ma'nolar, leksik-semantik paradigma va boshqa turdagi mazmuniy maydonlarning sistem aloqalarini o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. G'arbiy Yevropa tilshunosligida Y.Trirning mazmuniy maydon nazariyasi so'zlarning leksik-semantik aloqalari haqidagi qarashlarda muhim o'rin tutadi. Ma'no va mazmun umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi ko'pchilik lisoniy adabiyotlarda maydon sifatida belgilandi. Maydon nazariyasi muammolari bo'yicha keyingi yillarda qator tadqiqotlar olib borildi. G.S.Shchur maydon muammolari yuzasidan mingdan ortiq maqolalar e'lon qilinganini ta'kidlaydi.[7] Maydon tushunchasining uzil-kesil shakllanishiga yordam bergan hal qiluvchi tadqiqotlardan biri L.Vaysgerberning ishlari bo'ldi. Vaysgerber fikricha, tilni ruhiy mazmunning oddiy vositasi sifatida emas, balki dunyoni intellektual shakli sifatida o'rganish zarur, uningcha semasiologiya ma'nolar xususidagi fan bo'lmay, tushunchalar. haqidagi ta'limot bo'lishi kerak.Bu ishlardan kelib chiqqan holda, Y.N. Qaraulov "maydonning asosiy xususiyatlarini" quyidagicha belgilaydi.

1. Maydon elementlarining o'zaro aloqasi: bunda elementlarning mazmuniy o'xshashligi, mazmuniy munosabatdorligi (semantik korrelyasiyasi) obyektga bo'lgan munosabati nazarda tutiladi;

2. Maydon elementlarining bir-biridan farqlari asosida belgilanishi, ba'zan bu xususiyat o'zaro almashinish sifatida ham ta'riflanadi;[6]

3. Mazmuniy maydonlarning mustaqilligi (yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqadi;

4. Turli tillarda maydon xususiyatlarining o'ziga xosligi (tarixiy tarkibi, milliy jihatlari).[5]



Maydon tushunchasining talqini hamda unga xos xususiyatlarga ayrim holda yondashuv maydon nazariyasini tadsih etishning turlicha muammolarini vujudga keltirdi. Maydonning u yoki bu, xususiyatlariga tayanib, ushbu muammolar tadqiqotchilar tomonidan turli-tuman ravishda o'z yechimini topmoqda. O'zbek tilshunosligida ham sistema (maydon) talqini bilan bog'liq bir qator qarashlar yuzaga chiqadi. Xususan, M. Abduvaliyev tomonidan maydon nazariyasi birmuncha yoritilgan bo'lsa-da, u faqatgina sintaktik sathning to'siqsizlik kategoriyasi yuzasidan tadqiq etilgan.

T. Mirzaqulov esa funksional-semantik maydonlarning ayrim morfemikaga doir xususiyatlariga to'xtaladi. Shunday qilib, hali o'zbek tilshunosligida til birliklarini maydon asosida o'rganish keng yo'lga qo'yilgani yo'q. Bu usul, bizning nazarimizda, ayniqsa, leksikani o'rganishda katta ahamiyatga ega.

O'zbek tili leksikasini makromaydon sifatida qaralgani holda, uni mikromaydonlarga ajratish ideografik, lug'atlar tuzishda katta samara beradi. Shuning uchun ham lisoniy maydon va til lug'at tarkibini bunday maydonlarga ajratishning nazariy asoslarini o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldidagi eng dolzarb muammolardan sanaladi. Bizningcha, tilni maydon sifatida o'rganish tilni aks ettirish tabiatini ochishda juda katta ahamiyatga ega, chunki obyektiv olam bir butun sistema sanalib, sistemaning uzvlari muayyan mikroolamlardan iborat bo'ladi. Bu mikroolam inson ongi orqali tilda o'z ifodasini topadi. [4] Semantik maydon tushunchasi tilning so'z boyligi yoki leksikasini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq tarmoqlar tizimini anglatadi. Har bir so'z boshqa atamalar bilan bog'lanadigan birlashmalar tarmog'i bilan o'ralgan hamda o'zaro bog'liq bo'lgan narsalar bir xil semantik sohaga tegishli bo'lishi mumkin, masalan: uy, tom, zamin, devor va boshqalar.

Ko'p hollarda semantik maydonlarning bir-birini qoplashi kuzatilishi mumkin. Masalan misolda "shift" yoki "devor" maydoni bo'yash yoki ta'mirlash bilan bog'liq



holda bir-biriga to'g'ri kelishi mumkin.[8] Shu tarzda, semantik maydon g'oya yoki ma'noga asoslangan holda turli xil so'zlarni guruhlariga ajratadi.

Demak, tilni maydon sifatida o'rganish til+madaniyat munosabatini yorqin ifodalashga yordam beradi. Ayniqsa frazeologik birliklarni maydon nazariyasi asosida kichik mikromaydonlarga ajratib chog'ishtirib tahlilga tortish orqali ikki xalqni qadriyatlarini, odatlarini tili orqali bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Abduvaliyev M. To'siqsizlik maydoni va, uni tashkil etuvchi sintaktik birliklar. — Uzbek tili va adabiyoti, 1988, B.62-66.
2. Mirzaqulov T. Uzbek tili morfem paradigmatisasi va sintegmatikasi masalalari. — DDA. Toshkent, 1994, 18-bet
3. Mirzaqulov T. Uzbek tili morfem paradigmatisasi va sintegmatikasi masalalari. — DDA. Toshkent, 1994, 18
4. Iskandarova Sh. Leksikani mazmunuy maydon asosida o'rganish muammolari. Uzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 1998. – B. 32.
5. Гухман М. М. Лингвистическая теория-Л. Вайсгербер. — Воп-рось! теории языка в современ. заруб. лингвистике». М., 1961, стр, 123— 162.
6. Караулов Ю. Н. Общая и русская кдеог.графия. М., 1976, стр. 19.
7. Караулов Ю. Н. Общая и русская кдеог.графия. М., 1976, стр. 19
Лингвистический энциклопедический словарь М., 1990, стр 300
8. Щур Г. С. Теории поля в лингвистике. М., 1974, стр. 19.